

## O‘ZBEKISTON BASTAKORLIK IJODIYOTI

Madinaxon Erkinboy qizi Turg‘unboyeva  
madina.musician@gmail.com

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda bastakorlik ijodiyotining shakllanishi va taraqqiyot yo‘li haqida so‘z yuritilgan. Bundan tashqari, o‘zbek bastakorligining ayrim uslubiy tamoyillariga to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** bastakorlik, risola, ilmi ta‘lif, musannif, mulahhin, Shashmaqom, ashula, cholg‘u kuyi, kompozitorlik

## COMPOSITION CREATIVITY OF UZBEKISTAN

Madinaxon Erkinboy qizi Turg‘unboyeva  
madina.musician@gmail.com

Uzbek National Institute of Musical Art named after Yunus Rajabi

**Abstract:** This article talks about the formation and development of the compositional art of Uzbekistan. Besides, some methodological principles of Uzbek composition were touched upon.

**Keywords:** composition, treatise, ilmi ta‘lif, musannif, mulahhin, Shashmaqom, vocal music, instrumental music

Musiqa san‘ati asrlar davomida rivojlanib, turli xil janrlar asosida takomillashib, sayqallanib kelmoqda. Qadimdan avloddan-avlodga og‘zaki hamda yozma ko‘rinishda hozirgi kunga qadar yetib kelgan nomoddiy madaniy meroslar o‘zbek musiqa san‘ati shakllanishiga asos bo‘ldi. Badiiy tafakkur mahsuli bo‘lgan musiqa san‘atida ijodkorlik muhim tarmoq sifatida davrlar surib, o‘z rivojini topgan, shuningdek, ijodkorlik hamda ijrochilik mahoratini o‘z faoliyati davomida mushtarak olib borgan yetuk musiqachilar doimo xalq e‘tirofida bo‘lgan. Musiqa sohasida shunday ixtisoslik borki, u soha taraqqiyotini ta‘minlab, uning ertasini belgilab beruvchi muhi vazifani bajaradi. O‘tmish an‘analariga ko‘ra ushbu soha vakillari Yaqin va O‘rta Sharqda bastakor, musannif, mulahhin, ohangdon, ohangsoz, navosoz, nag‘manavoz, nag‘maovoz, nag‘masoz kabi atamalar bilan nomlangan. Qadimdan kasbiy darajadagi ijrochilik qobiliyatiga ega bo‘lib, o‘zlari ijod etgan asarlarini o‘zlari ijro etib, shogirtlarga og‘zaki tarzda o‘rgatib, ustozdan-shogirdga, avloddan-avlodgadavr surib bugungi kunga qadaryetib kelishida muhim vazifani bajargan san‘atkorlar tufayli bastakorlik ijodiyoti paydo bo‘ldi. “Bastakor (forscha - bog‘lash,

bog'lov, mashg'ulot, ish) - 1. Musiqiy asarlarni yaratuvchi ijodkor; 2. Ashula yo'llariga yangi she'rlarni bog'lovchi san'atkor; xalq kuyi va ashulariga yangi kuy jumlarini bog'lab, ovoz, muayyan cholg'u yoki jo'rnavozlik uchun moslashtiradigan, qayta ishlaydigan ijodkor"<sup>1</sup>dir.

O'zbek musiqa madaniyatida muhim o'rinni egallab turuvchi bastakorlik san'ati uzoq tarixga ega. Bu san'at paydo bo'libdiki, vaqtlar o'tgani sayin rivojlanib, katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Sharqda bastakorlikning paydo bo'lishi va dastlabki rivojlanish bosqichi VI-VII asrlarning buyuk musiqachisi, mutrib-bastakor Barbad (ba'zan Borbad) Marvaziy nomi bilan bog'liq (Barbad Marvaziy Shaxsi bo'yicha bugungi kunga qadar nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyolik bir qator olimlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilganligi bois, bu borada alohida to'xtalib o'tmaymiz.)

Bastakorlik san'atining paydo bo'lishi, uning taraqqiyot yo'lini belgilashda biz, albatta, yozma manbalar - ya'ni musiqiy risolalarga tayanamiz. O'rta asrlar Sharq allomalari musiqiy risolalarida bu san'at turi "ilmi ta'lif" deb yuritilgan. Bizgacha etib kelgan risolalar orasida dastlab Yoqub al-Kindiy risolalarida, keyinchalik Abu Nasr Forobiy va boshqa allomalar risolalarida "ilmi ta'lif" haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbek bastakorlik san'atida XIX asr oxirlari - XX asr davomida sezilarli darajada rivojlanishga erishildi. Asr boshlarida Shashmaqom bilimdonlari - Ota Jalol Nosirov hamda Ota G'iyos Abdug'aniyevlar, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov kabi buyuk xonanda va bastakorlar ham ijodkorlik, ham ijrochilikda yetakchilik qilgan bo'lsalar, o'zlaridan keyin bir qator umidli bastakorlarni voyaga etkazishga erishdilar. Shu tariqa XX asr musiqa ilmida bastakorlik san'ati muayyan tizimga solinib o'rganila boshlandi. Musiqashunos olim o'zining ko'p yillik izlanishlari natijasida an'anaviy bastakorlik ijodiyotining hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan va bevosita mualliflik amaliyotida qo'llanib kelinayotgan uslubiy tamoyillari, shakliy tuzilmalari, janriy turlaridan quyidagilarni ajratadi:

#### I. Meros namunasiga muallifan yondashish:

1. Folklor modelini janr jihatidan o'zgartirish - N. Hasanovning "Tom boshida tog'ora" asosida "Qizl"ar raqsi I" va "Qizlar raqsi II" (ufari), Yu. Rajabiyning "Tanovor" asosida "Yuzni oydek" va b.

2. Cholg'u kuylarini ashulalashtirish - I. Ikromovning "Munojot", "Cho'li Iroq" va "Ajam"lari va b.

3. Meros modelini shaklan yoinki janran o'zlashtirish

4. Meros namunasining ladi (parda) tizimida mustaqil asar yaratish - O.Hotamovning "Qoshi yosinmu" ashulasi va b.

---

<sup>1</sup> Ражабов И. Шарқ мусиқа атамаларининг қисқача луғати. Нашрга тайёрловчи махсус муҳаррир изоҳлар муаллифи О.Иброҳимов. "TAMADDUN" нашриёти, Тошкент, 2023, 34-бет.

II. Muayyan vohta ijodiy tamoyillari (lad, ohanglar majmui, shakli va janri)ni asarda umumlashtirish:

1. Farg'ona-Toshkent tamoyillari - J.Sultonovning "Naylayin" (S.Abdulla), "Gulizorim qani?" (Lutfiy), "Tamanno" (Muqimiy), S.Jalilning "Ey yori - xush kelibsiz" (Nihoniy), "Kelmasa kelmasun netay", A.Ismoilovning "Holim so'rma", "Uchrashuv" kabi, N.Qulabdullayevning "O'ylamang" singari kuy va qo'shiqlari.

2. Buxoro-Saarqand tamoyillari - O'.Rasulovning "Dil tasnifi", "Ko'ngil navosi", "Parvona", "Shiru-shakar", O.Atoviyevning "Buxorcha yor-yor", "Maza dorad labi yor", "Zardo'z qizlar raqsi" va b.

3. Xorazm tamoyillari - O.Xudoyshukurovning "Birinchi muhabbatim", "Mujgonlaring", "Olamda bir", O.Otajonovning "Umr o'tar..." (O.Matjon).

III. Muayyan vohta tamoyillarida ko'p qismli turkumlar yaratish:

1. I.Ikromovning "Farhod" syuitasi, F.Mamadaliyevning "Munojot", "Nasrulloiy", "Miskin" va "Ushshoq" turkumlari, O.Hotamovning Yassaviy, Bokirg'oni, Navoiy, Chustiy g'azallariga turkumlari va b."<sup>2</sup>

O'tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib O'zbekistonda kompozitorlik ijodi anchagina rivojlandi deb aytish mumkin. Dastlabki ustoz kompozitorlardan so'ng zamonaviy tafakkurga ega bo'lgan yangi avlod yetishib chiqdi. Kompozitorlik ijodiyotining shakllanishi o'z navbatida bastakorlik ijodiyotiga ta'sir o'tkazdi va aksincha. Natijada, ayrim bastakorlar - kompozitorlik ijodiyotiga mansub janrlarda ijod qilishgan bo'lsa, keyinchalik bir qator kompozitorlar asarlarida bastakorlik tamoyillari sezila boshlandi. Eslatib o'tish joizki, dastlab ustoz bastakorlardan To'xtasin Jalilov musiqali drama (qariyb 40 ga yaqin) va opera ("Tohir va Zuhra") yaratishga qo'l urgan bo'lsa, Yunus Rajabiy bir qator kompozitorlar (T.Sodiqov, D.Zokirov va B.Zeydmanlar qatori) bilan hamkorlikda "Zaynab va Omon" operasidagi ayrim nomerlarni yaratgan.

O'tgan asrda O'zbekistonda shunday kompozitorlar yetishib chiqdiki, ularning ijodida bastakorlik ta'siri yaqqol sezildi. Bir qator kompozitorlar o'zlarining asarlarida mumtoz musiqa merosimiz namunalaridan bo'lgan cholg'u kuylari, ashulalardan foydalanib o'z asarlarini bastakorlik unsurlari bilan boyitdilar. Bularga misol qilib Sayfi Jalilning "Samarqandnoma" simfoniyasi, Mirsodiq Tojiyevning bir qator simfoniyalarini keltirish mumkin. "Samarqandnoma" simfoniyasi birinchi qismining mavzulari monodik turga mansub bo'lsa, ikkinchi qismda kompozitor Giryu kuyi va usulidan foydalangan. Uchinchi qismda ham muallif bastakorlik ijodiyotiga murojaat qilib, bu qismda Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodiga mansub "Bozurgoniy" ashulasidan foydalangan.

<sup>2</sup> Ғофурбеков Т. Бастакорлик ижодиёти: тарихи, тақдири ва таҳлили. "Muharrir" нашиёти, Тошкент, 2019, 185-186-бетлар.

Xalq musiqasidan simfonik, yevropacha janrdagi asarlarda foydalanilgan misollardan ayrimlarini keltiramiz. Bu borada bastakor Yunus Rajabiyning Sayfi Jalil bilan hamkorlikda yaratgan "Navoiy Astrobodda" musiqali dramasidan namuna qarash mumkin. Asarning 12-nomeridagi "Alishoh ariyasi"da mualliflar mumtoz musiqamiz merosidan bo'lgan "Sayqal" kuyidan foydalanganlar. Bir kuyning ushbu holatlarda ikki xil variantda ishlatilganini ko'radigan bo'lsak, unda farqlardan ko'ra umumiylik, o'xshashlik jihatlari ko'proq ko'zga tashlanadi. Namunalarning hajmi, kuy tuzilishi, yo'nalishi, doira usuli, hatto sur'ati ham bir xil. Har ikkisida ham to'rt taktli cholg'u muqaddimasi berilgan. Yu.Rajabiy to'plamidan olingan namunaga qarasa, undagi "Sayqal" cholg'u kuyi sifatida berilgan, biroq uning notalariga diqqat bilan e'tibor berish orqali uning dastlabki to'rt takti ritmik, kuy yo'nalishi, sakramalar, cholg'u ijrosiga xos bo'lgan xususiyatlar mavjud bo'lgani uchun uni cholg'u muqaddimasi, uning davomi esa ko'proq kuylashga yaqin bo'lgani, kuyning ravon, pog'onama-pog'ona harakati orqali vokal partiyasi ekanini anglash qiyin emas. Musiqali dramadagi variantida esa so'z matni yordamida cholg'u muqaddimasi hamda vokal partiyani ajratish mumkin, ya'ni unda ham dastlab orkestr to'rt taktli kirish ijro etadi va undan so'ng Navoiyning "Yordin hijron chekar..." so'zlari bilan aytilgan vokal partiyasi boshlanadi. Har ikki namunada ham doira usuli, o'lchov bir xil, har ikkisida cholg'u muqaddima - takt, vokal partiya esa - takt oldi (zatakt) bilan ijro etiladi. Har ikki namunaning kuy tuzilishi bir xil, tinglash orqali buni anglash qiyin emas, faqatgina ular musiqiy bezaklari orqali bir-biridan farq qiladi xolos.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bastakorlarimiz xalq musiqasiga chuqur tayangan holda mumtoz maqom san'ati ohanglaridan, kuy va ashularidan, zarb-usullaridan, maqom shakllari-yu uslublaridan unumli foydalanib ajoyib asarlarni ijod etarkan, bu asarlar o'zbek milliy musiqa san'atining noyob namunalari sifatida benihoua qadrlidir. Shunday ekan, ushbu ijodiy jarayonni avvalo amaliy, so'ngra tarixiy va nazariy tarzda o'rganish musiqashunoslik oldida turgan dolzarb masalalardandir. Bunda nafaqat XX asr o'zbek bastakorlik ijodiyoti, balki mustaqillik yillarida bastakorlar ijodi va izlanishlarini, erishgan yutuq va kamchiliklarini atroflicha yoritish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Орипов З. X-XV асрлар Марказий Осиё музыка манбашунослиги. Тошкент, 2017.
2. Ражабов И. Мақомлар. Нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир: О.Иброҳимов. Тошкент, 2006.
3. Ражабов И. Шарқ музыка атамаларининг қисқача луғати. Нашрга тайёрловчи махсус муҳаррир изоҳлар муаллифи О.Иброҳимов. "ТАМАДДУН" нашриёти, Тошкент, 2023.

4. Юнусов Р. Фахриддин Содиқов. Тошкент, 2005.
5. Юнусов Р. Фаттоҳхон ҳофиз. “Adast poligraf”, Тошкент, 2022.
6. Ғофурбеков Т. Бастакорлик ижодиёти: тарихи, таҳлили, тақдири. “Muharrir” нашиёти, Тошкент, 2019.
7. О‘zbek xalq muzikasi - III tom. То‘plovchi va notaga oluvchi Yunus Rajabiy. Toshkent, “Davlat badiiy adabiyot nashriyoti”, 1950.
8. О‘zbek xalq muzikasi - IV tom. То‘plovchi va notaga oluvchi Yunus Rajabiy. Toshkent, “Davlat badiiy adabiyot nashriyoti”, 1958.